

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941- yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,30 ming kv. km Chegara uzunligi 617,1 km Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (75,0 km), Namangan viloyati bilan (67,0 km), Qirg'iz Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 796 kv. km.ga 1 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 486,8 ming kishi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil 1-iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 424,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 30,1 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 788,9 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 635,5 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.

Doimiy aholi soni

3 424,4 ming kishi

Tabiiy o'sish

30,1 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Shahar joylarda



52,2 %

1 788,9 ming kishi

Qishloq joylarda




47,8 %

1 635,5 ming kishi



50,7%

1 734,9 ming kishi



1 689,5 ming kishi



Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi 2024- yil 1- yanvar holatiga



ANDIJON VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

2024-yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumotlar



Doimiy aholi soni

3 424 440 kishi



Tug'ilganlar soni

38 482 kishi



O'lganlar soni

7 559 kishi



Nikohlar soni

7 904 birlik



Nikohdan ajralishlar soni

2 390 birlik



Ko'chib kelganlar soni

3 589 kishi

shundan, xorijdan

2 - kishi



Ko'chib ketganlar soni

4 451 kishi

shundan, xorijga


17 - kishi

**Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni
to'g'risida ma'lumot**
(2024- yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma'lumot)

	<i>Doimiy aholi soni, kishi</i>				
	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>shu jumladan:</i>	
		<i>erkaklar</i>	<i>ayollar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>

Viloyat bo'yicha:	3 424 440	1 734 901	1 689 539	1 788 935	1 635 505
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	486 765	245 483	241 282	486 765	-
Xonobod	46 161	23 007	23 154	39 290	6 871
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	192 980	97 557	95 423	101 133	91 847
Andijon	289 186	144 463	144 723	221 884	67 302
Baliqchi	217 629	110 940	106 689	72 011	145 618
Bo'ston	78 606	39 679	38 927	27 963	50 643
Buloqboshi	154 227	78 514	75 713	74 054	80 173
Jalaquduq	200 369	102 182	98 187	83 343	117 026
Izboskan	257 367	131 300	126 067	82 138	175 229
Ulug'nor	64 052	32 090	31 962	6 741	57 311
Qo'rg'ontepa	232 158	117 021	115 137	99 230	132 928
Asaka	358 020	181 149	176 871	110 278	247 742
Marhamat	187 898	95 886	92 012	147 391	40 507
Shahrixon	327 404	167 298	160 106	108 304	219 100
Paxtaobod	210 454	106 668	103 786	76 864	133 590
Xo'jaobod	121 164	61 664	59 500	51 546	69 618

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2024- yil 1-iyul holatiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	2023- yil 1-iyul holatiga, kishi	2024- yil 1-iyul holatiga, kishi	O'tgan yining mos davrilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 354 016	3 424 440	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	473 849	486 765	102,7
Xonobod	45 446	46 161	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	190 677	192 980	101,2
Andijon	282 586	289 186	102,3
Baliqchi	213 157	217 629	102,1
Bo'ston	76 841	78 606	102,3
Buloqboshi	151 099	154 227	102,1
Jalaquduq	196 803	200 369	101,8
Izboskan	252 343	257 367	102,0
Ulug'nor	63 488	64 052	100,9
Qo'rg'ontepa	227 852	232 158	101,9
Asaka	350 637	358 020	102,1
Marhamat	184 093	187 898	102,1
Shahrixon	320 305	327 404	102,2
Paxtaobod	206 229	210 454	102,0
Xo'jaobod	118 611	121 164	102,2

Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (2024- yil yanvar-iyun holatiga, kishi)


	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	39 306	38 482	-824	23,7	22,7
O'lganlar	7 079	7 559	480	4,3	4,5
Ko'chib kelganlar	3 127	3 589	462	1,9	2,1
Ko'chib ketganlar	4 060	4 451	391	2,5	2,6

Tug‘ilish. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 38 482 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (39 306 kishi) nisbatan -824 taga kamaygan, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 22,7 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan -1,0 promilleda pasaygan.




Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsiyenti
2024- yil yanvar-iyun davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

Tirik tug‘ilganlar soni, kishi



Tug‘ilish koeffitsiyenti
(1000 aholiga nisbatan, promille)



Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi
2024- yil yanvar-iyun holatiga, kishi



	Jami	jinsi bo‘yicha		joyi bo‘yicha	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar	shahar	qishloq

Viloyat bo‘yicha:	38 482	19 813	18 669	21 259	17 223
--------------------------	---------------	---------------	---------------	---------------	---------------

shaharlar:

Andijon sh.	7 736	4 074	3 662	7 736	-
Xonobod sh.	399	192	207	398	1


tumanlar:

Oltinko‘l	1284	657	627	644	640
Andijon	3 578	1843	1735	2 870	708
Baliqchi	2 316	1168	1148	494	1822
Bo‘ston	938	466	472	405	533
Buloqboshi	1573	779	794	693	880
Jalaquduq	2115	1084	1031	816	1299
Izboskan	2 774	1422	1352	833	1941
Ulug‘nor	422	224	198	56	366
Qo‘rg‘ontepa	2 370	1220	1150	1075	1295
Asaka	3 843	2011	1832	1080	2 763
Marhamat	2030	1026	1004	1495	535
Shahrixon	3 659	1866	1793	1330	2 329
Paxtaobod	2 180	1117	1063	840	1340
Xo‘jaobod	1265	664	601	494	771

2024-yil yanvar-iyun davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 19 813 nafarni yoki jamidan 51,5 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 18 669 nafar va jamidan 48,5 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 21 259 nafarni (jamidan 55,2 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 17 223 nafarni (jamidan 44,8 %) tashkil etdi.

Vafot etganlar. 2024-yil yanvar-iyun oylarida 7 559 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi.

O‘limning sabablari bo‘yicha taqsimlanishi
(2024- yil yanvar-iyun holatiga)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,4 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 % o‘smalardan, 3,7% baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,9 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 3,8 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,7 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 7 904 ta (o‘tgan yilning mos davrida 7 954 ta), ajrimlar soni 2 390 ta (o‘tgan yilda 2 853 ta)ga teng bo‘ldi. Qayd etilgan nikoh ko‘rsatkichi aholiga nisbatan 4,7 promilleni (2023-yilning tegishli davrida 4,8 promille) va ajrim ko‘rsatkichi 1,4 promilleni (2023 -yilning tegishli davrida 1,4 promille) tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(2024- yil yanvar-iyun holatiga)

(birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>

Viloyat bo'yicha:	7 954	7 904	2 853	2 390
--------------------------	--------------	--------------	--------------	--------------

shaharlar:


Andijon	1227	1254	531	469
Xonobod	100	91	45	31

tumanlar:

Oltinko'l	398	397	129	125
Andijon	600	632	271	228
Baliqchi	479	482	159	128
Bo'ston	151	151	57	60
Buloqboshi	385	353	117	104
Jalaquduq	483	415	153	94
Izboskan	651	644	219	199
Ulug'nor	96	99	53	46
Qo'rg'ontepa	511	482	178	124
Asaka	830	874	279	258
Marhamat	479	459	145	141
Shahrixon	760	763	231	186
Paxtaobod	551	557	192	121
Xo'jaobod	253	251	94	76




Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsiyenti (2024- yil yanvar-iyun holatiga)




Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Buloqboshi tuman (0,6 promillega), Qo'rg'ontepa tumanlari (0,3 promillega) Marhamat tumanlari (0,4 promillega), Jalaquduq tuman (0,8 promillega) va Xonobod shaharda (0,5 promillega) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida, birlik)



Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan eng ko'p pasayishi kuzatildi Paxtaobod va Jalaquduq tumanlarida (0,7 promillega), Qo'rg'ontepa (0,5 promillega), Andijon shaharida (0,4 promillega) va Xonobod shaharida (0,6 promillega) ro'y berdi.

Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti (2024- yil yanvar-iyun davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)





Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 589 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4 451 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus -862 kishini tashkil etgan, 2023- yilning mos davrida minus -933 kishi bo'lgan.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-iyun holatiga)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Viloyat bo'yicha	3127	3589	4060	4451	-933	-862
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	845	770	976	1184	-131	-414
Xonobod	124	152	87	112	37	40
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	234	253	189	235	45	18
Andijon	468	656	421	437	47	219
Baliqchi	104	123	229	204	-125	-81
Bo'ston	70	74	93	82	-23	-8
Buloqboshi	74	91	165	163	-91	-72
Jalaquduq	126	170	289	289	-163	-119
Izboskan	28	123	270	297	-242	-174
Ulug'nor	29	14	68	96	-39	-82
Qo'rg'ontepa	257	233	281	356	-24	-123
Asaka	174	193	255	251	-81	-58
Marhamat	80	110	174	171	-94	-61
Shahrixon	107	160	247	229	-140	-69
Paxtaobod	81	131	177	172	-96	-41
Xo'jaobod	326	336	139	173	187	163

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlar iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.